

**TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING BOSH KOTIBI BAG'DOD  
AMREEVNING TASHQI ISHLAR VAZIRLARI KENGASINING NAVBATDAN  
TASHQARI YIG'ILISHIDAGI NUTQI**

**Istanbul, 2022 yil 11 yanvar**

**Hurmatli vazirlar,**

Turkiya Respublikasi Tashqi ishlar vaziri, janob Mavlud Chavusho'g'liga Turkiy davlatlar tashkiloti raisiligi sifatida ta'sischi davlatimiz bo'lgan Qozog'istonda bo'lib o'tgan so'nggi voqealarni muhokama qilish va qo'llab-quvvatlashimizni yana bir bor tasdiqlash uchun o'z vaqtida tashabbus ko'rsatgani uchun samimiy minnatdorchiligimni bildiriman.

Qozog'iston Turkiy dunyo nihoyatda muhim va ajralmas qismidir. Qozoq zamini barcha turklarning vatani, shuning uchun Qozog'istonning barqarorligi va farovonligi qolgan Turkiy dunyo farovonligining ajralmas qismidir.

Bugun Qozog'iston ekstremistik kuchlarning Olmaota va Qozog'istonning boshqa shaharlarida zo'ravonlik va noqonuniy xatti-harakatlari natijasida o'zining zamonaviy tarixidagi eng og'ir vaqtni boshdan kechirmoqda. Butun Qozog'iston nishon ostida edi. Qozog'istonning mustaqilligi va suvereniteti nishon ostida edi. Shu bois qardosh mamlakat rahbariyati, xususan, Prezident Qosim-Jomart To'kayev bu buzg'unchi harakatlarga chek qo'yish, tartib va qonunning buzganlarga nisbatan zarur choralarni ko'rish uchun keskin ammo ammo juda kerakli qarorlar qabul qilishga majbur bo'ldi. Shuning uchun biz Qozog'istonning qonuniy rahbariyatini qat'iy qo'llab-quvvatlashimizni tasdiqlaymiz.

Shu asnoda, Kotibiyat sifatida birinchi kundan boshlab biz voqealar rivojini kuzatib bormoqdamiz, a'zo va kuzatuvchi davlatlarimiz o'rtasida muvofiqlashtirishni ta'minlash uchun barcha sa'y-harakatlarimizni amalga oshirmoqdamiz.

Biz a'zo davlatlarimiz nomidan bayonot berib, Qozog'istonda tinchlik va barqarorlikka katta ahamiyat berilayotganini ta'kidladik hamda mamlakat bilan mustahkam birdamligimizni bildirdik.

Shuningdek, biz qardosh qozoq xalqining donoligi va xohishi bilan Qozog'iston hukumati mamlakatda osoyishtalik va tartibni tiklashini qat'iy ishonchimizni ta'kidladik.

Davlat rahbarlarimiz va tashqi ishlar vazirlarimiz ham qozog'istonlik hamkasblari bilan bo'lgan muloqotlarida bu xabarni to'g'ridan-to'g'ri bildirishdi. Biz a'zolarimiz o'rtasida mintaqaviy masalalarda, shuningdek, mamlakatlarimiz va Turkiy dunyoga doir masalalarda qat'iy maslahatlashuv mexanizmiga katta ahamiyat beramiz.

Qardosh ta'sischi a'zomizdagi bu so'nggi o'zgarishlar, davlat rahbarlarining 8-sammitida qabul qilingan "Turkiy dunyo nigohi – 2040" bilan bir qatorda Naxchivan kelishuvining asosiy ustunlaridan biri bo'lgan Turkiy dunyoda xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni oshirish muhimligini yana bir bor isbotladi.

Darhaqiqat, tashkilot uchun bu birinchi marta emas va tashkilot doimo Turkiy dunyo birdamligini ko'rsatish va xalqaro hamjamiyatning mas'uliyatli va kuchayib borayotgan ishtirokchisi sifatida, ayniqsa, so'nggi bir necha yil ichida harakat qilish uchun zarur choralarni ko'rmoqdadir:

Avvalo, Ozarbayjonning Qorabog'dagi 44 kunlik Vatan urushi davrida tashkilot a'zo va kuzatuvchi davlatlar hukumati va qardosh Ozarbayjon xalqi bilan mustahkam birdamligini ko'rsatdi.

Shuningdek, 2020-yilda Qirg'iziston Respublikasida bo'lib o'tgan parlament saylovlaridan keyingi voqealar hamda 2021-yil aprel oyi oxirida qirg'iz-tojik davlat chegarasida vaziyat keskinlashgani munosabati bilan qardosh qirg'iz xalqi va hukumati bilan birdamligimizni bildirdik.

Hududiy masalalar bo'yicha biz mamlakat va mintaqa tinchligi va barqarorligiga hissa qo'shish maqsadida birinchi marta Afg'oniston masalasi bo'yicha Tashqi ishlar vazirlarining navbatdan tashqari yig'ilishini tashkil etdik.

### **Qadrli Vazirlar,**

Kotibiyat sifatida biz a'zo va kuzatuvchi davlatlar sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishda davom etishga tayyormiz.

Uchrashuv yakunida qabul qiladigan Bayonotda biz Qozog'istonda tinchlik va barqarorlikning muhimligini ta'kidladik va Qozog'iston hukumatining Qozog'iston Konstitutsiyaviy tuzumini buzishni maqsad qilganlarga qarshi olib borayotgan aksilterror operatsiyalarini qo'llab-quvvatladik.

Bayonotda Qozog'istondagi islohotlar kun tartibini qo'llab-quvvatlash ham aks ettirilgan. Bugun biz Prezident Qasim-Jomart Tokayevning Janobi Oliylarini Qozog'iston parlamenti oldida qardosh Qozog'iston xalqi farovonligi va bardavomiyligini yanada oshirish yo'lida kelgusi davrda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risidagi yanada ruhlantiruvchi va optimistik ma'ruzasini tingladik. A'zo va kuzatuvchi davlatlarimiz Qozog'iston xalqi va hukumatini ushbu islohotlarda ham qo'llab-quvvatlashga tayyor.

Shu bois, biz sizning qimmatli yo'l-yo'riqlaringizni va ushbu vazifalarni zudlik bilan amalga oshirishga tayyormiz.

Murojaatimni yakunlashdan avval, sodir bo'lgan voqealarda yaqinlarini yo'qotgan oilalarga chuqur hamdardligimizni bildiraman va jarohatlanganlarning tezroq sog'ayib ketishini tilayman.

Umid qilamanki, Qozog'iston bu og'ir kunlarni tez orada yengib o'tadi va o'z taraqqiyotini bardavom ettiradi.

Rahmat.